



History of the elections to the Academy of Sciences of Uzbekistan (1943–1989)

Alisher ISMAILIOV¹

State Museum of History of Uzbekistan

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2024

Received in revised form

15 January 2024

Accepted 25 February 2024

Available online

15 March 2024

Keywords:

academician,
full member,
corresponding member,
scientist and creator,
Election Charter,
at least once every two
years,
presidium,
at least once every three
years.

ABSTRACT

In this article, the author touches on the history of elections to the full (academic) and corresponding members of the Academy of Sciences. The elections of full (academic) and corresponding members of the Academy of Sciences in 1943–1989 and the composition of the academicians elected to them are covered based on archival sources. It specifies the number of full and corresponding members of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, elected in the period from its foundation in 1943 to 1989. Due to this aspect of the issue, the Academy of Sciences serves as the main material for the election of full and full corresponding members.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss2/S-pp204-210>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

O'zbekiston Fanlar Akademiyasiga saylovlar tarixi (1943–1989-y.)

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

akademik,
haqiqiy a'zo,
muxbir a'zo,
olim va ijodkorlar,
saylash bo'yicha Nizom,
kamida ikki yilda bir marta,
Prezidium,
kamida uch yilda bir marta.

Ushbu maqolada muallif Fanlar Akademiyasining haqiqiy (akademik) va muxbir a'ziligiga saylovlar tarixiga to'xtalgan. 1943–1989-yillarda Fanlar Akademiyasi haqiqiy (akademik) va muxbir a'ziligiga saylovlar va unda saylangan akademiklar tarkibi arxiv manbalar asosida yoritilgan. Unda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining 1943-yilda tashkil etilgan vaqtdan to 1989-yilgacha bo'lgan davrda saylangan haqiqiy va muxbir a'zolari soniga aniqlik kiritilgan. Masalaning ushbu jihati orqali Fanlar Akademiyasi haqiqiy va muxbir a'ziligiga saylovlar haqida asosiy material bo'lib xizmat qiladi.

¹ Doctor of History (DSc), Senior Researcher, Scientific Secretary, the Academy of Sciences of Uzbekistan, State Museum of History of Uzbekistan. E-mail: alisher.ismailov.1981@mail.ru

История выборов в Академию Наук Узбекистана (1943–1989 гг.)

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

академик,
действительный член,
член-корреспондент,
ученый и создатель,
Устав о выборах,
не реже одного раза в два
года, президиум,
не реже одного раза
в три года.

В этой статье автор исследует историю выборов действительных (академических) членов и членов-корреспондентов Академии наук за период 1943–1989 годы. Основываясь на архивных источниках, освещается состав академиков, избранных в Академию наук Республики Узбекистан с момента ее основания до конца указанного периода. Статья уточняет количество действительных членов и членов-корреспондентов, подчеркивая важность этих выборов для академического сообщества.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev akademiklik mashaqqatini – “Ma'lumki, bitta fan doktori, professor, ayniqsa, akademikning haqiqiy olim bo'lib kamol topishi uchun davlat va jamiyat unga kamida 30–40 yil vaqt, katta mehnat va mablag' sarflaydi. Akademik degan yuksak darajaga erishish bu albatta oson emas. Bunday baxt har kimga ham nasib qilavermaydi. Akademiklar millatning faxri, g'ururi, xalqning yuzi, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi”, – deb e'tirof etgan edi.

Darhaqiqat, akademik unvoni mashaqqatli va sharaflı yo'ldir. Bunga akademiklarning hamkasblari, do'stlari, yaqinlari va shogirdlari tomonidan ularning hayoti va ijodiga bag'ishlangan xotira va esdalik asarlar yaqqol misol bo'la oladi.

Akademik – ayrim mamlakatlarda yuksak ilmiy unvon. O'zbekiston Respublikasida Fanlar Akademiyasi va Badiiy Akademiyasida akademiklar saylanadi. Akademiklik unvoni O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi Badiiy Akademiyasi va boshqa ilmiy hamda o'quv muassasalarining olim va ijodkorlari, shuningdek ayrim shaxslarga beriladi[1].

1943–1989-yillarda saylangan akademiklar ham O'zbekistonda fanning shakllanishi, rivojlanishi va istiqbolloriga katta hissa qo'shgan. Ularning ko'pchiligi hozirgi kunda ham o'zbek ilm-faniga ulkan hissa qo'shib kelmoqda.

MATERIAL VA METODLAR

Maqola umumqabul qilingan tarixiy-qiyosiy, muammoli-xronologik, obyektivlik, tizimli tahlil kabi tamoyillar asosida yoritilgan. Dunyoning yetakchi tadqiqot markazlarida davlat va jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy – ma'rifiy va ma'naviy – axloqiy rivojlantirishga yo'naltirilgan tabiiy, texnikaviy, tibbiy, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu jihatdan tabiat, jamiyat va insoniyat, sun'iy yaratilgan obyektlar taraqqiyoti, millatlar, milliy madaniyatlar, davlat va milliy munosabatlarning rivojlanish muammolari va jarayonlari, ta'lim va ma'rifat masalalarini tadqiq etadi, amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida ushbu yo'nalishlarga oid masalalarning yechimi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Mavzuga tegishli adabiyotlarni xususiyatlaridan kelib chiqib o'rganish maqsadga muvofiqdir. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining akademiklari va muxbir a'ziligiga saylovlar tarixi to'liq o'rganilmagan. Mavjud adabiyotlarda akademiklarning

umumiy sonini haqiqiy va muxbir a'zolari birgalikda hisoblash bilan talqin qilish, yoki saylovlar bo'lib o'tgan yillar, saylangan akademik va muxbir a'zolar soni, ularning tarkibi kabi jihatlar xolis talqin etilmagan.

Shuning uchun ham mazkur yo'nalishdagi tadqiqotni amalga oshirish dolzarb, ilmiy-amaliy ahamiyatga molikdir.

NATIJALAR

Fanlar Akademiyasi haqiqiy a'zolari – akademiklarning saylanishi Fanlar Akademiyasining “Nizom”larida ma'lum me'yorlar asosida tashkil etilgan. Tahlillarda saylovlar orasidagi muddat uzog'i 6 yilda qisqa muddat 2 yilda o'tkazilgan. Bu jihatlar albatta Fanlar Akademiyasining “Nizom”larida aks etganligini ko'rsatadi.

Jumladan, O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasining 1982-yil 1-martdagi Nizomida “O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasining haqiqiy a'zolari (O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasining akademiklari) va muxbir a'zolarining saylovi kamida ikki yilda bir marta o'tkaziladi va Fanlar Akademiyasi Prezidiumi tomonidan tayinlanadi”, [2] deb belgilangan. O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasining umumiy majlisida “O'zbekiston SSR fanlar akademiyasiga saylovlar tartibi” 1989-yil 17-oktabrda tasdiqlangan [3]. Unda saylovlar kamida uch yilda bir marta Fanlar Akademiyasining umumiy yig'ilishida o'tkazilishi belgilangan.

1943-yildan to 1989-yilgacha bo'lgan davrda Fanlar Akademiyasining haqiqiy a'zolari akademiklari saylangan vaqtda ular bilan muxbir a'zolar ham saylangan. Muxbir a'zolarining soni manbalar asosida umumlashtirildi va jami 92 nafar ekanligi aniqlandi (1-jadval) jadvalda berilgan [4].

1-jadval.

1943-1989-yillarda Fanlar Akademiyasining muxbir a'zoliciga saylanganlar soni

№	Saylov o'tkazilgan sanalar	Muxbir a'zolar soni
1.	1943-yil 3-noyabr	18
2.	1947-yil 14-iyun	7
3.	1952-yil 11-aprel	9
4.	1956-yil 5-oktabr	13
5.	1960-yil 7-yanvar	10
6.	1962-yil 22-23-yanvar	3
7.	1966-yil 25-fevral	6
8.	1968-yil 3-dekabr	8
9.	1974-yil 16-mart	5
10.	1979-yil 22-iyun	7
11.	1984-yil 7-sentabr	4
12.	1987-yil 25-sentabr	-
13.	1989-yil 8-9 dekabr	2
Jami:		92

1943-1989-yillarda o'tkazilgan saylovlar va undagi akademiklar soni haqida quyidagi jadvalda (2-jadval) batafsil keltirib o'tilgan.

Fanlar Akademiyasining haqiqiy a'ziligiga (akademik) o'tkazilgan saylovlar haqida quyidagi ma'lumotlarni keltirib o'tamiz. Unda saylov o'tkazilgan yillar, saylangan akademiklar va sohalari ro'yxatini keltirib o'tamiz.

2-jadval.

**Fanlar Akademiyasining haqiqiy a'zligi uchun saylovlar
va saylangan akademiklar**

№	Saylov o'tkazilgan-yillar	Saylangan akademiklar soni
1.	1943-yil 3-noyabr	11
2.	1947-yil 14-iyun	5
3.	1952-yil 11-aprel	6
4.	1956-yil 5-oktabr	9
5.	1960-yil 7-yanvar	3
6.	1962-yil 22-23-yanvar	2
7.	1966-yil 25-fevral	18
8.	1968-yil 3-dekabr	6
9.	1974-yil 16-mart	7
10.	1979-yil 22-iyun	7
11.	1984-yil 7-sentabr	8
12.	1987-yil 25-sentabr	5
13.	1989-yil 8-9 dekabr	9
Jami:		96

Fanlar Akademiyasida **1943-yil 3-noyabrda** [5] dastlabki saylov bo'lib o'tgan unda quyidagi olimlar akademik sifati saylangan. Sarimsoqov Toshmuhammad Aliyevich (Matematika), Muso Toshmuhammedov o'g'li Oybek (Adabiyot tarixi), Andryev Mixail Stepanovich (Etnografiya), Askochenskiy Aleksandr Nikolayevich (Gidrotexnika), Poslavskiy Viktor Vasilevich (Gidrotexnika), Umarov Sulton Umarovich (Yadro fizikasi), Romanovskiy Vsevolod Ivanovich (Matematika), Qori-Niyozov Tashmuhammad Niyozovich (Matematika), Uklonskiy Aleksandr Sergyevich (Mineralogiya va geokimyo), Shreder Rixard Rixardovich (Qishloq xo'jaligi), G'ulomov G'afur G'ulomovich (O'zbek folklori).

Keyingi saylovlar bo'lib o'tgan sanalar va ularda saylangan akademiklarga ham alohida to'xtalib o'tamiz.

1947-yil 14-iyun [6]. Abdullayev Habib Muhammadovich (Geologiya), Sodiqov Obid Sodiqovich (Bioorganik kimyo), Dodonov Ivan Kuzmich (Tarix), Raxmatulin Xalil Axmedovich (Mexanika), Korovin Yevgeniy Petrovich (Geobotanika).

1952-yil 11-aprel [7]. Kanash Sergey Stepanovich (G'o'za seleksiyasi), Muhammadjonov Mirza-Ali Valiyevich (Paxta agrobiologiyasi), Zoxidov Tesha Zoxidovich (Zoologiya, ekologiya), Jitov Konstantin Yevlampiyevich (O'rta Osiyo tarixi), Yunusov Sabir Yunusovich (Organik kimyo), Yunusov Adham Yunusovich (Fiziologiya).

1956-yil 5-oktabr [8]. Cherdansev Gleb Nikanorovich (Iqtisod), Zokirov Qodir Zokirovich (Botanika), O'rozboyev Muhammad Toshevich (Mexanika), Nabiyeval Malik Nabiyeval (Noorganik kimyo), Sulaymanova Xadicha Sulaymanovna (Jinoyat huquqi), Orifov Ubay Orifovich (Fizik elektronika), Starodubsev Sergey Vasilevich (Fizik elektronika), Mo'minov Ibrohim Mo'minovich (Falsafa), Fozilov Hosil Fozilovich (Elektroenergetika).

1960-yil 7-yanvar [9]. Lavrov Nikolay Vladimirovich (Yoqilg'i ishlash texnologiyasi), Muzaffarov Axror Muzafarovich (Botanika), Mavlonov G'ani Orifxonovich (Muhandislik geologiyasi).

1962-yil 22-23-yanvar [10]. Azimov Sodiq Azimovich (Yadro fizikasi), Adirovich Emmanuil Ilich (Yarimo'tkazgichlar).

1966-yil 25-fevral [11]. Qobulov Vasil Qobulovich (Matematika), Sukervanik Isaak Platonovich (Organik kimyo), Akromxo'jayev Obid Murodovich (Neft va gaz geologiyasi), Abdullayev Vohid Abdullayevich (O'zbek adabiyoti), G'ulomov Yahyo G'ulomovich (Arxeologiya), Щеглов Vladimir Petrovich (Astronomiya), To'raqulov Yolqin Xolmatovich (Hayvonlar biokimyosi), Popov Vladimir Ivanovich (Geologiya), Rusanov Fedor Nikolayevich (Botanika), Ahmedov Karim Sodiqovich (Kolloidlar kimyosi), Sirojiddinov Sag'di Xasanovich (Matematika), Musaboyev Isoq Qurbanovich (Yuqumli kasalliklar), Bugayev Viktor Antonovich (Meteorologiya), Xodjinova Maqsuda Agzamovna (Mexanika), Рылов Sergey Nikolayevich (Agrokimyo), Rajabov Yunus (Yunus Radjabiy) (Musiq), Usmonov Hamdam Usmonovich (Fizik kimyo), Zohidov Vohid Yuldashevich (Adabiyotshunoslik).

1968-yil 3-dekabr [12]. Homudxanov Muzaffar Zohidxonovich (Avtomatika), Saidov Jo'ra Kamolovich (Botanika), Muhammadiyev Auliya Muhammadiyevich (Gidrobiologiya), Yuldashev Muhammadjon Yuldashevich (Tarix, manbashunoslik), No'monov Komil No'monovich (Yashin) (Adabiyot), Zufarov Komiljon Ahmedjanovich (Tibbiyot).

1974-yil 16-mart [13]. Olimov Shokir Olimovich (Tibbiyot), Oripov O'ktam Oripovich (Tibbiyot), Hamroboyev Ibrahim Hamroboyevich (Geologiya), Nurmuhammedov Marat Koptleuich (Adabiyotshunoslik), Shoabdurahmonov Shonazar Shoabdurahmonovich (Tilshunoslik), Ziyadullayev Said Karim (Iqtisod), Salohiddinov Maxmud Salohiddinovich (Matematika).

1979-yil 22-iyun [14]. Kamolov Sobir Kamolovich (Tarix), Boymuhammadov Hosil Nurmatovich (Geologiya), Otaxo'jayev Akbar Qosimovich (Optika), Yusupov Erkin Yusupovich (Falsafa), Vohidov Vosit Vohidovich (Jarrohlik), Lapkin Kuzma Ivanovich (Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti), Iskandarov Ibrohimjon Iskandarovich (Sanoat iqtisodiyoti).

1984-yil 7-sentabr [15]. Habibullayev Po'lat Qirg'izboyevich (Okustika), Musayev Jo'ra Azimboyevich (Genetika), Pugachenkova Galina Anatolevna (San'atshunoslik), Tursunov Habib Tursunovich (Tarix), Глуценко Aleksey Danilovich (Mexanika), Usmonxo'jayev Halim Haydarovich (Mashinalar nazariyasi), Rashidov Tursunboy Rashidovich (Quyosh mexanikasi), Saidov Muxtor Safarboyevich (Fizika).

1987-yil 25 sentabr [16]. Lebedev Oleg Vladimirovich (Mashinasozlik), Salimov Zokirjon Salimovich (Kimyo texnologiya), Hamidov Jahongir Hakimovich (Fiziologiya), Asqarov Ahmadali Asqarovich (Arxeologiya), Toshmuxamedov Bekjon Oybekovich (Fiziologiya).

1989-yil 8-9-dekabr [17]. Mavloniy Mashhura Egamovna (Mikrobiologiya), Abdirov Charjau Abdirovich (Mikrobiologiya), Abdullayev Jo'ra Abdullayevich (Axborotlarga ishlov berish), Begijonov Rahim Begijonovich (Fizika), Jo'rayev To'xtamurod Jo'rayevich (Matematika), Sultonxo'jayev Abdumubdi No'monovich (Gidrogeologiya), O'razayev Shavkat Zokariyevich (Huquq), Hayrullayev Muzaffar Muhiddinovich (Falsafa), Hollmurodov Asqar G'aniyevich (Biotexnologiya).

Tahlillardan ko‘rinib turibdiki, mazkur davrda 13 marotaba saylovlar o‘tkazilgan, ularda 96 nafar haqiqiy va 92 nafar muxbir a‘zolar saylangan.

MUHOKAMA

Demak, 1943–1989-yillarda 13 marotaba saylov o‘tkazilgan bo‘lsa, har bir saylovda o‘rtacha yetti nafardan haqiqiy va muxbir a‘zolar saylangan. Bu davrda akademiklik uchun saylovlar o‘rtacha uch yarim yilda bir marotaba o‘tkazganligini ko‘rishimiz mumkin.

1943–1989-yillarda 96 ta akademik saylangan. Ulardan eng yosh akademik 28 yoshni Sarimsoqov Tashmuhammad Aliyevich, matematika, 1915-yil 10-sentabrda tug‘ilgan, 1943-yilda saylangan), eng keksa yosh 76 yoshni (Shreder Rixard Rixardovich, qishloq xo‘jaligi, 1867-yil 15 oktabrda tug‘ilgan, 1943-yilda saylangan) va o‘rtacha yosh 53 yoshni tashkil etmoqda.

1943–1989-yillarda akademiklar saylangan yosh bo‘yicha, 40 yoshgacha bo‘lgan davrda 9 nafar, 41–50 yoshgacha bo‘lgan davrda 50 nafar, 51–60 yoshgacha bo‘lgan davrda 69 nafar, 61–70 yoshgacha bo‘lgan davrda 35 nafar, 71–80 yoshgacha bo‘lgan davrda 10 nafar akademik saylangan.

Shu bilan birga Oliy attestatsiya komissiyasining fan tarmog‘i bo‘yicha Fanlar Akademiyasining haqiqiy a‘zolari – akademiklar soni aniqlandi[18]. Unga ko‘ra, Fanlar Akademiyasining haqiqiy a‘zolari – akademiklar soni bo‘yicha “01.00.00. Fizika-matematika fanlari” sohasi yetakchi hisoblanadi.

XULOSA

Fanlar Akademiyasi haqiqiy a‘zolari – akademiklarning saylanishi Fanlar Akademiyasining “Nizom”larida ma‘lum me‘yorlar asosida tashkil etilgan. Tahlillarda saylovlar orasidagi muddat uzog‘i olti yilda, qisqa muddat esa ikki yilda o‘tkazilgan.

1943–1989-yillarda 13 marotaba saylov o‘tkazilgan bo‘lsa, har bir saylovda o‘rtacha yetti nafardan haqiqiy va muxbir a‘zolar saylangan. Bu davrda akademiklik uchun saylovlar o‘rtacha uch yarim yilda bir marotaba o‘tkazganligini ko‘rishimiz mumkin.

1943–1989-yillarda Fanlar Akademiyasining haqiqiy a‘zoriga saylangan akademiklar orasida eng yoshi kichik akademik, ya‘ni 28 yoshida saylangan Sarimsoqov Tashmuhammad Aliyevich bo‘lgan.

1943–1989-yillarda Fanlar Akademiyasining haqiqiy a‘zoriga saylangan akademiklar o‘rtacha yoshi 53 yoshni tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining fan tarmog‘i tasnifiga ko‘ra Fanlar Akademiyasining haqiqiy a‘zolari – akademiklar yetishib chiqishi bo‘yicha “01.00.00.Fizika matematika fanlari” sohasi yetakchi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 1 жилд, А – Бешбалиқ. -Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2000. -Б. 167-168.
2. Устав Академии наук Узбекской ССР. Утвержден постановлением Совета Министров Узбекской ССР от 1 марта 1982 г. №160
3. Ўзбекистон ССР Фанлар академиясига сайловлар тўғрисида/Положение о выборах а академию наук Узбекской ССР. -Тошкент: «Фан», 1989. -Б. 2.
4. Ўз Р ФА МА, 1-фонд, 2-Л рўйхат, 242 йўзма жилд. Академии наук в годы независимости Узбекистана.-Ташкент: Фан, 2013. -576 с.

5. Ўз Р ФА МА, 1-фонд, 2-Л рўйхат, 242 йиғма жилд, 1-2 varaқ.
6. Ўз Р ФА МА, 1-фонд, 2-Л рўйхат, 242 йиғма жилд, 3 varaқ.
7. Ўз Р ФА МА, 1-фонд, 2-Л рўйхат, 242 йиғма жилд, 4 varaқ.
8. Ўз Р ФА МА, 1-фонд, 2-Л рўйхат, 242 йиғма жилд, 5 varaқ.
9. Ўз Р ФА МА, 1-фонд, 2-Л рўйхат, 242 йиғма жилд, 6 varaқ.
10. Ўз Р ФА МА, 1-фонд, 2-Л рўйхат, 242 йиғма жилд, 23 varaқ.
11. Ўз Р ФА МА, 1-фонд, 2-Л рўйхат, 242 йиғма жилд, 24 varaқ.
12. Ўз Р ФА МА, 1-фонд, 2-Л рўйхат, 243 йиғма жилд, 87 varaқ
13. Ўз Р ФА МА, 1-фонд, 2-Л рўйхат, 243 йиғма жилд, 87 varaқ
14. Ўз Р ФА МА, 1-фонд, 2-Л рўйхат, 242 йиғма жилд, 142-150 varaқ. 1979 йил

22 июнь

15. Ўз Р ФА МА, 1-фонд, 2-Л рўйхат, 243 йиғма жилд, 41, 87-91 varaқ, 1984 йил

7 сентябрь,

16. Ўз Р ФА МА, 1-фонд, 2-Л рўйхат, 243 йиғма жилд, 118-123 varaқ, 1987 йил

25 сентябрь

17. Ўз Р ФА МА, 1-фонд, 2-Л рўйхат, 243 йиғма жилд, 164-165 varaқ, 1989 йил

8-9 декабр

18. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси / Олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар ихтисосликлари рўйхати, -Тошкент: 2019.